



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

9. Мадрахимов, Ш. Н., Мамадов, Ф. Қ., & Гулбутаев, Б. Х. (2024). Турли селекцияга мансуб голштин зотли сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. *Science and innovation*, 3(Special Issue 40), 255-257.
10. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асослари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
11. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
12. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, (22), 1.
13. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

QORAQALPOQ SUR QO'ZILARNING YOSHI DINAMIKASIDA EKSTERER KO'RSATKICHLARI O'ZGARISHI

Turganbaev R.U., Iskenderov U.A.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. O'sish va rivojlanish qonuniyatlari o'rganish qishloq xo'jalik hayvonlarining mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hayvonlarning tana o'lchamlari, ya'niy eksterer ko'rsatkichlarining ba'zilar ona qornidagi embrional davrda jadal o'sish bilan tavsiflansa, ba'zi bir eksterer ko'rsatkichlari postembrional davrda jadal tezlikda o'sadi va rivojlanadi. [1. 17-19 b.], ma'lumotlarida ko'rsatilishicha, qo'ylarning embrional davrda ulardagi homilaning trubasimon suyaklari tez o'sishini, postembrional davrda bo'lsa, yalpoq suyaklarning o'sish tezligi ortishini ta'kidlaydilar.

Eksterer ko'rsatkichlarining muvozanatlashishi hayvon organizmi ma'lum bir davrdan, ya'niy balog'at yoshiga etganda kuzatiladi. Ekster'er ko'rsatkichlarining shakllanishida tashqi muhit omillari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini va ularning yuzaga chiqish jarayonida ularning ta'siri ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiqot ishlarida ta'kidlangan [2. 21-22 b.], [3. 130-134 b.].

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpoq sur qo'zilarining yoshi dinamikasida eksterer ko'rsatkichlari o'zgarishi o'rganilgan.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Qoraqalpoq zot tipidagi sur qorako'l qo'ylarining shamchiroq-gul va o'rik-gul rang-baranglikdagi qorako'l qo'chqorlar, sovliqlar, qo'zilar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib qoraqalpoq zot tipidagi shamchiroq-gul va o'rik-gul rang-baranglikdagi sur qo'ylari va qo'zilarining yoshi dinamikasida o'sish va rivojlanish xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda umumiy qabul qilingan zootexnikaviy, biologik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi spss (Statistical Paskage for Social Science) kompyuter dasturi asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. YUqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining shamchiroq-gul va o'rik-gul rang-baranglikdagi qo'zilarining yoshi dinamikasida ekster'er ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shuni tahlil qilish mumkinki, qo'zilar tug'ilganda yag'rin balandligi ko'rsatkichi bo'yicha shamchiroq-gul qo'zilarida $32,7 \pm 0,31$ sm. bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'rik-gul rang-baranglikdagi qo'zilarida bo'lsa, $34,9 \pm 0,29$ sm.-ga teng ekanligi aniqlandi. Ya'niy 2,2 sm-ga o'rik-gul rang-baranglikdagi qo'zilarida ustunlikni ko'rish mumkin.

Gavdaning qiya uzunligi, ko'krak chuqurligi, ko'krak kengligi, ko'krak aylanasi va poycha aylanasi ko'rsatkichlari bo'yicha ham shunga mos ravishda 1,7; 0,5; 0,8; 2,3 va 0,4 sm. farqlanishlarni ko'rish mumkin. Eksterer o'lchamlari dinamikasi bo'yicha barcha ko'rsatkichlar yangi tug'ildan davrdan boshlab 4-4,5 oylik davrgacha jadal suratta o'sishini ko'rish mumkin.

1-jadval

Yoshi dinamikasida qo'zilarining eksterer o'lchamlari, sm.

Rang-baranglik	Qo'zilar bosh soni	Yosh davrlari	Qo'zilarining eksterer o'lchamlari, sm ($X \pm S_x$)					
			Yag'rin balandligi	Gavdaning qiya uzunligi	Ko'krak chuqurligi	Ko'krak kengligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi
O'rik-gul	30	tug'ilganda	34,9±0,28	30,8±0,25	15,0±0,15	9,5±0,63	39,8±0,24	5,4±0,11
		4-4,5 oy	54,9±0,47	55,9±0,49	22,9±0,22	13,4±0,16	67,4±0,62	6,9±0,14
		12 oy	64,0±0,53	63,3±0,44**	28,3±0,24*	16,0±0,17	76,8±0,63	7,4±0,16
		18 oy	64,9±0,54	66,8±0,61	29,8±0,25	17,4±0,59	85,4±0,76	7,9±0,13
SHamchiroq-gul	30	tug'ilganda	32,7±0,31*	29,1±0,23	14,5±0,13	8,7±0,76	37,5±0,27	5,0±0,15**
		4-4,5 oy	53,0±0,44	54,2±0,31	21,7±0,19	12,5±0,13	65,5±0,45	6,4±0,11*
		12 oy	63,5±0,61	62,1±0,43**	27,6±0,16	14,7±0,16	74,2±0,71	7,2±0,13
		18 oy	64,2±0,51	64,9±0,51	27,7±0,19	16,2±0,15	83,1±0,73	7,6±0,21

*P<0,05., **P<0,01

2-jadval

Qo'zilarining tana tuzilish indekslarining yoshi dinamikasi o'zgarishi, %

Tana tuzilish indekslari	Rang-baranglik							
	O'rik gul				SHamchirok gul			
	Tug'il-ganda	4-4,5 oylik	12 oylik	18 oylik	Tug'il-ganda	4-4,5 oylik	12 oy oylik	18 oylik
Uzunoyoqlilik	57,02	58,29	55,78	54,08	55,66	59,05	56,53	56,85
CHo'zinchoqlik	88,25	101,82	98,91	102,93	88,99	102,26	97,79	101,09
Zichlik	129,22	120,57	121,33	127,84	128,86	120,85	119,48	128,04
Massivlik	114,04	122,77	120,0	131,59	114,68	123,58	116,85	129,44
Suyakdorlik	15,47	12,57	11,56	12,17	15,29	12,07	11,33	11,83
Ko'krakdorlik	63,33	58,52	56,53	58,39	60,0	57,60	53,26	58,48

Yag'rin balandligi ko'rsatkichi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, qo'zilar yosh davrida jadal o'sishi kuzatildi.

Yag'rin balandligi ko'rsatkichi bo'yicha yosh dinamikasida olingan ma'lumotlar natijalarida, yag'rin balandligi ko'rsatkichi shamchiroq-gul rang-baranglikdagi yangi tug'ilgan davrdagiga nisbatan 4-4,5 oylik davrda 17,3 sm.-ga, 4-4,5 oylik davrdan 1-yoshgacha davrda 10,5 sm.-ga, 1-yoshdan 18-oylik davrgacha 0,7 sm.-ga farqlanganligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich o'rik-gul rang-baranglikdagi qo'zilar yoshi dinamikasida shunga mutanosib ravishda 20 sm.-ga, 9,1 sm.-ga va 0,9 sm.-ga teng bo'ldi. Yangi tug'iladan davridan boshlab, 4-4,5 oylik davrigacha ekster'er ko'rsatkichlari jadal kechishi va 4-4,5 oylik davridan 12-oylik davrigacha sekinlashishi kuzatiladi. Boshqa ko'rsatkichlarda ham shunga o'xshash tendensiyaning kuzatishimiz mumkin.

Yangi tug'ilgan davridan boshlab, 4-4,5 oylik davrigacha ekster'er ko'rsatkichlari jadal kechishi va 4-4,5 oylik davridan 12-oylik davrigacha sekinlashishi kuzatiladi. Boshqa ko'rsatkichlarda ham shunga o'xshash tendensiyaning kuzatishimiz mumkin.

Qo'zilar tana tuzilish indekslarining yoshi dinamikasi o'zgarishi (2-jadval) ma'lumotlaridan shuni ta'kidlash mumkinki, yangi tug'ilgan davrda shamchiroq-gul rang-baranglikdagi qo'zilar uzunoyoqlilik indeksi bo'yicha, 57,02 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich o'rik-gul rang-baranglikka mansub qo'zilar bo'lsa, 55,66 %-ni tashkil qilib, shamchiroq-gul rang-baranglikdagi qo'zilar 1,36 %-ga ustunligi ko'rish mumkin. Bunday uzunoyoqlilik indeksi bo'yicha olingan tendensiya keyingi yoshi dinamikasida ham saqlanib qolgan holda, 4-4,5 oylik davrda o'rik-gul rang-baranglikka mansub qo'zilar shamchiroq-gul qo'zilarga nisbatan, 1,3 %-ga, 12 oylik davrda esa, 1,4 %-ga, 18 oylik davrda shunga mos ravishda, 5,1 %-ga ustunlik qilgan. O'rik-gul rang-baranglikdagi qo'zilar yoshi kesimida uzunoyoqlilik indeksi ko'rsatkichi bo'yicha, barcha yoshda ustunligi, ularning tirik vazni yuqoriligi va ushbu rang-baranglikdagi qo'ylarning gavda tuzilishi yirikligi bilan isbotlanadi. Cho'zinchoqlik (yangi tug'ilgan davrda 0,72 %) va zichlik indeksi (yangi tug'ilgan davrda 0,34 %) ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlarda katta farqlanishlar kuzatilmadi. Keyingi yosh dinamikasida ham bunday tendensiya saqlanib qoldi. Suyakdorlik indeksi bo'yicha shamchiroq-gul rang-baranglikka mansub yangi tug'ilgan qo'zilar 15,47 % bo'lgan bo'lsa, 4-4,5 oylik davrda 12,57 %, 12 oylik davrda esa, 11,56 % va 18 oylik davrda 11,56 %-ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich o'rik-gul rang-baranglikka ega qo'zilar yoshi dinamikasida shunga mutanosib ravishda 15,29 %; 12,07 %; 11,33 % va 11,83 %-ni tashkil qilgan.

Ko'krakdorlik indeksi bo'yicha o'rik-gul rang-baranglikka ega qo'zilar yoshi dinamikasida ancha ustunligini kuzatish mumkin. Yangi tug'ilgan davrda ushbu indeks ko'rsatkichi bo'yicha, 3,3 %-ga, 4-4,5 oylik davrda 0,92 %-ga, 12 oylik davrda esa, 3,27 %-ga va 18 oylik davrdagi qo'ylarda farqlanishlar (0,09 %) tenglashib borganini ko'rish mumkin. Olingan ma'lumotlar tahlili shundan darak beradiki, tana tuzilishi indekslari bo'yicha rang-barangliklar kesimida gavda tuzilishi shakllanishi m'yor darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Xulosa. Qayd etilgan natijalar qo'zilar ekster'er xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir etishini ko'rsatadi va bu holatni seleksiya jarayonida e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axrorova.G., Abduzoirova.D "Qoraqalpoq qorako'li Nurota adirlari sharoitida". J. CHorvachilik va naslchilik ishi. 2022. №6. 17-19 betlar.
2. Gaziev A. "Turli ekologik sharoitda qorako'l qo'ylarida seleksion belgilarning namoyon bo'lishi va o'zgaruvchanligi, J.CHorvachilik va naslchilik ishi. 2021. №6. 21-22 betlar.
3. Турганбаев Р.У. – Отбор по важным признакам каракалпакского сура. В научн. сб. "Чўл-яйлов чорвачилиги генофондидан экологик жиҳатдан мутаносиб фойдаланиш муамоллари". Самарканд 2010, С. 130-134.